

SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Asosiy kapitalga investitsiyalar 2020-yil yanvar-mart

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi:
1 657,2 mlrd. so'm

O'sish sur'ati:
128,0 %

Asosiy kapitalga Investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan:
168,3 mlrd. so'm

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan:
1 488,9 mlrd. so'm

Joriy davrda 1 657,2 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 69,4 % jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 30,6 % moliyalashtirildi.

Markazlashgan manbalari hisobidan:

Respublika byudjeti:
63,3 mlrd. so'm

Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi:
7,0 mlrd. so'm

O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar:
98,0 mlrd. so'm

Markazlashmagan manbalari hisobidan:

Aholi mablag'lari :
260,1 mlrd. so'm

Korxona mablag'lari:
247,4 mlrd. so'm


Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari:
240,8 mlrd. so'm

To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:
740,6 mlrd. so'm

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning 14,9 % korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 14,6 %, to'g'ridan - to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 44,7 %, aholi mablag'lari 15,7 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 5,9 %, Respublika byudjeti 3,8 % va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 0,4 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jamiga nisbatan, % da)





Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar


	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	1 657,2	128,0	100,0
Republika byudjeti	63,3	48,3	3,8
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	7,0	52,8	0,4
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	98,0	89,1	5,9
Korxona mablag'lari	247,4	111,0	14,9
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	240,8	51,7	14,6
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	740,6	685,2	44,7
Aholi mablag'lari	260,1	107,0	15,7



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Surxondaryo	1 657,2	128,0	100,0
Oltinsoy	42,1	121,8	2,5
Angor	50,3	109,6	3,0
Bandixon	10,3	100,5	0,6
Boysun	215,5	204,4	13,0
Denov	198,4	158,8	12,0
Jarqo'rg'on	131,9	117,9	8,0
Qiziriq	96,4	102,5	5,8
Qumqo'rg'on	59,2	121,5	3,6
Muzrabot	71,9	109,3	4,3
Sariosiyo	149,7	101,0	9,0
Termiz	167,9	191,3	10,1
Uzun	64,0	135,3	3,9
Sherobod	117,2	100,8	7,1
Sho'rchi	62,3	167,5	3,8
Termiz sh.	220,1	101,7	13,3


Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari



Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Boysun tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 204,4 %, Termiz tumanida 191,3 %, Sho'rchi tumanida 167,5 %, Denov tumanida 158,8 % va Uzun tumanida 135,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

jamiga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hududlar kesimida Termiz shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 13,3 % o'zlashtirildi.


Shuningdek Termiz shahridan keyingi o'rinda Boysun tumani – 13,0 % ni tashkil etmoqda.

Denov va Termiz tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda – 12,0 va 10,1 % ni tashkil etdi.

Sariosiyo hamda Jarqo'rg'on tumanlarida investitsiyalarning viloyatdag'i ulushi – 9,0 va 8,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, Bandixon tumanida bu ko'rsatkich bo'yicha eng kami bo'ldi – 0,6 %.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha - 708,8 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar - 833,9 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga - 114,5 mlrd. so'm o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)




Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi - 837,9 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 50,5 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar - 564,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 34,1 % ini tashkil etdi. Qolgan 15,4 %, yani - 254,7 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qishloq xo'jaligi yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan - 511,7 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 30,9 % o'zlashtirilgan.

Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 2 faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish - 131,6 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 7,9 %);
- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish - 10,7 mlrd. so'm (0,6 %);

Tashish va saqlashda - 83,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 5,0 % o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar




mlrd. so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar	Boshqa investitsiya va kafolatmagan kreditlar	shu jumladan:	
		Investitsiya	kredit			investitsiya	Kafolatlanmagan kredit
Surxondaryo	838,6	346,0	492,6	345,4	395,3	0,6	394,7
Termiz sh. tumanlar:	54,0	20,0	34,0	19,4	30,9	0,6	30,3
Oltinsoy	20,4	-	20,4	-	19,6	-	19,6
Angor	7,8	1,6	6,2	1,6	2,4	-	2,4
Bandixon	1,9	1,9	-	1,9	-	-	-
Boysun	168,2	162,2	6,0	162,2	3,2	-	3,2
Denov	120,7	7,8	112,9	7,8	99,6	-	99,6
Jarqo'rg'on	78,9	23,8	55,1	23,8	55,1	-	55,1
Qiziriq	5,7	-	5,7	-	5,7	-	5,7
Qumqo'rg'on	21,0	3,8	17,2	3,8	8,8	-	8,8
Muzrabot	36,1	34,3	1,8	34,3	1,8	-	1,8
Sariosiyo	106,1	15,0	91,1	15,0	38,0	-	38,0
Termiz	123,9	51,8	72,1	51,8	72,1	-	72,1
Uzun	37,6	16,2	21,4	16,2	14,6	-	14,6
Sherobod	12,2	1,9	10,3	1,9	5,1	-	5,1
Sho'rchi	44,1	5,7	38,4	5,7	38,4	-	38,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Jamiga nisbatan, % da:




Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi qishloq xo`jaligi o'zlashtirilib, u 255,3 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 30,4 % ni tashkil etdi.

Hajm jihatidan keyingi o'rinni qayta ishlash sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi bo'yicha - 253,3 mlrd. so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 30,2 % o'zlashtirildi.

Tog`kon sanoati faoliyati bo'yicha - 186,9 mlrd. so'm, tashish va saqlash faoliyati bo'yicha - 33,2 mlrd. so'm xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan.

Ishga tushirilgan turar joylar



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumi maydoni 272,6 ming kv.m, bo'lgan 1566 ta turar joy obyekti yangi qurilib, ulardan umumi maydoni 226,4 ming kv.m bo'lgan 1288 tasi qishloq joylashgan.

Turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Termiz tumanida ishga tushirilgan 44,3 ming kv.m va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumi maydonning 16,3 % ini tashkil etdi. Keyingi o'rnlarda Sariosiyo va Sherobod tumanlari egallagan bo'lib, viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumi maydonning 14,3 va 11,9 % ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Uzun tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 1,5 % ni tashkil etdi.



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni:

(76) 223-07-15